

JISMONIY TARBIYA DASLARIDA HARAKATLI O'YINLAR

**Jonizoqov Doniyor Nazarovich**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktab o'quvchilarini harakatli o'yinlar, ularni jismoniy tarbiya fanidagi o'rni haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *harakatli o'yinlar, metodika, tayyorgarlik, vosita, jismoniy sifatlar, "kadrlar tayyorlash milliy dasturi, "CHillak", "Oq tosh", "Qoziq", "Tegizsang-minasan", "Bayroq uchun kurash".*

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'lim-tarbiyani takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etib, unda o'quvchi-yoshlarning ma'naviy, jismoniy hamda estetik madaniyatini shakllantirish uchun tashkiliy, psixologik-pedagogik shart-sharoitlarning metodik tizimini ishlab chiqish dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 29 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzasida, "biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz", – deb ta'kidlagan edi. Shu ma'noda ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'quvchi-yoshlarni yuksak ma'naviyatli, estetik didli, axloqli va ma'rifatli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda. Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlar vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalash borasida dars jarayonini muvofaqqiyatli tashkil etish uchun ularni (milliy harakatli o'yinlarning) rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda ta'lim tizimining umumiy o'rta ta'lim bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yuksak ma'naviyatli, estetik didli, axloqli va ma'rifatli, bir so'z bilan aytganda, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda. Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko'nikma va malakalar sohibi bo'lishi muhimligini ta'kidlaydi. Jumladan, ta'lim va tarbiya ishlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy harakatli o'yinlarning estetik asoslarini anglash ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirish alohida e'tiborni talab etadi. Shu jihatdan olib qaraganda umumiy o'rta ta'lim yo'nalishida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar tizimida o'quvchilarni zamonaviy usullar asosida estetik tarbiyalashda milliy harakatli o'yinlardan foydalanishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etishning yangi uslubiy yondashuvlarini joriy etishning mazmuni va metodikasini ishlab chiqish muammosi utuvor tarzda qarilishi lozim.

O'qituvchi har bir dars uchun bolalar organizmiga har taraflama ijobiy ta'sir etuvchi turli harakatli o'yinlarni tanlashi va ularni o'tkazishda har xil usullardan foydalanib borishi lozim. Darsda, shuningdek turli o'yinlarni o'tkazish jarayonida o'rganiladigan materialning metodik jihatdan izchilligiga alohida e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu izchillik, birinchidan, darsning ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini to'g'ri hal qilish, ikkinchidan, dars materiallarini to'liq o'tishga erishish, uchinchidan, butun dars davomida har bir mashqni muayyan me'yorda amalga oshirish imkonini beradi.

O'yin faoliyati, u qanday shaklda bo'lmasin, bolalarda hamisha quvonch baxsh etadi. Juda ko'p kutilmagan quvnoq holatlarni vujudga keltiradigan harakatli o'yinlar esa bolalarda ijobiy his-tuyg'ular uyg'otishda muhim rol o'ynaydi. Mana shu quvnoq hayajon mobaynida o'yinlarning juda katta tarbiyaviy kuchi yashiringan. Harakatli o'yinlarning tematikasi, mazmuni ayniqsa puxta tahlil etilishi va turli yoshdagi bolalarga muvofiq tarzda tanlanishi lozim.

Har qanday o'yin – u xoh ijodiy, xoh didaktik, xoh musiqiy, xoh harakatli o'yin bo'lmasin, baribir tevarak atrofidagi olamni bilish vositasi sifatida bolaning hayotiy o'ziga hos, muhim rol o'ynaydi. Harakatli o'yinlar mazmunida bolaga bilim beradigan bir talay material bo'ladi. Bu materialning bilim darajasini kengaytiradi va uning olam haqidagi tasavvurlarini boyitib, unga aniqlik kiritib boradi. Odamlar, tabiat hodisalari, hayvonlarning hatti-harakatlari tasvirlangan ba'zi bir epizodlar syujetli o'yinlar tematikasini tashkil etadi. Bular bari bolalar tomonidan shartli o'yinlar shaklida: "Sayohatchilar", "O'quvchilar", "G'ozlar-oq qushlar", "Inida yotgan aymiq" va boshqa o'yinlar o'ziga hos tarzda ifodalab beriladi. Biroq tevarak atrofidagi olamni bola to'g'ri idrok etishi uchun o'yinchi barcha shartlikka qaramay, obrazning haqqoniy xarakteristikasi hayajonli tarzda pedagog tomonidan o'yin shartlarini tushuntirish vaqtida ifodalab berilishi kerak. Bunda xalq o'yinlarini misol qilib olish mumkin. Ulardagi o'yin vaziyati bolani o'ziga jalb etadi va uni tarbiya qiladi. Ba'zi bir o'yinlarda uchrab turadigan dialog tarzidagi suhbatlar esa personajlar va ularning harakatlarini bevosita ko'rsatib beradi.

Harakatli o'yinlarni o'quv yilning choraklari bo'yicha rejalashtirishda ob-havo sharoitlarini hisobga olish kerak, albatta. Masalan, O'zbekistonda dekabr, yanvar, fevral oylaridan boshqa paytlarda mashg'ulotlarni ochiq havoda o'tkazish mumkin. Biroq ob-havo yaxshi vaqtga mo'ljallangan "CHillak", "Oq tosh", "Qoziq", "Tegizsang-minasan", "Bayroq uchun kurash" singari o'yinlar rejalashtirilganida ehtiyoj uchun ularning o'rniga bino ichkarisida o'tkazsa bo'ladigan o'yinlarni ham belgilab qo'yish kerak. Bolalar uchun harakatli o'yinlarning ahamiyati ularda muayyan jismoniy sifatlarni hosil qilish va ularni takomillashtirish bilan cheklanmaydi. Harakatli o'yinlar bolalarda intizomlilik, jamoada o'zini tuta bilish va uning sharafi, obro'si uchun kurashish, o'rtoqlariga beg'araz yordam berish kabi fazilatlarni ham shakllantiradi.

Dasturda harakatli o'yinlarning turlari taklif etilar ekan, ularning tarixiy-nazariy xamda estetik xususiyatlarini anglashga yo'naltirish va bu bilimlar jismoniy tarbiya



darlarida hizmat qilishi uchun muayyan darajada diqqat markazida bo'lishi nazarda tutiladi hamda dastur materiallarini o'zlashtirishda quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- o'quvchilarga o'rgatilayotgan harakatli o'yinlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar berish;
- asosiy harakatlar va mashqlar, ularning mazmuni hamda bajarishdagi estetik jihatlarni ta'riflab berish;
- jismoniy tarbiya darolarida harakatli o'yinlar dars jarayonida qo'llanilishidan maqsad, u o'quvchilarga nimalar berishi haqida hikoya qilish;
- harakatli o'yinlardagi nafasotni o'quvchilar ongida shakllantiriish.

Shu nuqtai nazardan yuqorida sharhlab o'tilgan didaktik talablarni nechog'lik amalda samarali qo'llanishi aynan jismoniy tarbiya darolarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashda harakatli o'yinlarning mazmuni bilan bog'liq.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.A.Qurbonova, M.U. Qosimova Milliy va harakatli o'yinlar: O'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2009, 66 b.
2. Usmanxodjayev T.S., Sh.X.Isroilov, A.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov "Milliy va harakatli o'yinlar" Darslik. - Toshkent, 2015, 300 b.
3. Абдуллаев У. "Халқ ўйинлари миллий спорт турларини тиклаш ва аҳолини жисмоний тарбиялашда улардан кенг фойдаланиш усуллари" мавзусига бағишланган жумҳурият миллий-амалий анжуманининг тезислари. 19-20 апрель 1991 йил 1-қисм, Б-12-15.
4. Былеева Л., Коротков И., Яковлев В. Подвижные игры. (учебные пособие для институтов физической культуры). М.: Физкультура и спорт, 1974 г., 208 с.
5. Juraev R. X., Karaxonova L. M. media ta'limi maktab o'quvchilarining ta'lim sifatini oshirish omili sifatida / / hayot davomida ta'lim: barqaror rivojlanish uchun uzluksiz ta'lim. - 2013. - S. 322-323.
6. Sodirjonov, M. M. "Monitoring the issues of human capital research in ethnosocial processes and social trends." Social policy and social partnership 6 (2021): 6.
7. Sodirjonov M. M. On the coverage of ethnic processes in the information space //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). - 2020. - T. 9. - №. 6. - C. 165-171.
8. Содирджонов М. М. Мониторинг вопросов исследования человеческого капитала в этносоциальных процессах и социальные тенденции //Социальная политика и социальное партнерство. - 2021. - №. 6. - С. 447-458.